



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyea Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVASION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIVAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадирова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIVASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIVAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anijonovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Останов Эгамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKILOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	274
Xoshimov Pazliddin Zuxurovich	
KICHIK BIZNES ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH STRATEGIYALARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	278
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
MAMLAKATIMIZDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	283
Quryozov Sardorbek Sharifboevich	
РАЗРАБОТКА И ПРИОРИТИЗАЦИЯ КЛЮЧЕВЫХ ИНДИКАТОРОВ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЛЯ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНОЙ ПАНЕЛИ МОНИТОРИНГА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БОЛЬНИЦ: ЭКСПЕРТНАЯ ОЦЕНКА СО СТОРОНЫ РУКОВОДИТЕЛЕЙ МЕДУЧРЕЖДЕНИЙ	290
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	297
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
BANK TIZIMINING BARQAROR MOLIVAVIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH VOSITALARI	303
Sadikov Iskandar Gayratovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	308
Халиков С. Х.	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNI ROLI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI	313
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС СТАНОВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	317
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	321
Isakov Oybek Jamoliddinovich	
NORASMIY KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINING FERMER XO'JALIKLARI YETISHTIRGAN MAHSULOT MIQDORIGA TA'SIRINI BAHOLASH	325
Ismoilov Azamat	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA FOIZ RISKINI BOSHQARISH AMALIYOTI	332
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SUT VA SUT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLOVCHI KORXONALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	341
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
"AYOL RAHBARLAR: RAHBARLIK SALOHİYATI VA ISH JOYIDA TENGLIK" FRANSIYA DAVLATI TAJRIBASI ASOSIDA	346
Abduraxmonova Feruzabonu	



QISHLOQ XO'JALIGIDAGI KLASSTERLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	352
Dildora Yuldasheva	
TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT BAZASINING YETARLILIGINI TA'MINLASH YO'LLARI	359
I.J. Isakov	
OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA IQTISODIY DIAGNOSTIKA O'TKAZISHNING XORIJ TAJRIBASI	363
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich, Axmedov Oybek Turg'unpulatovich	
INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISH YO'LLARI.....	369
Egamberdiyeva Dilorom Botir qizi, Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
"KREATIV IQTISODIYOT" HAMDA "TURIZM" TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	374
Abdurasulov Shovqiddin Erkin o'g'li	
THE STRATEGIC ROLE OF THE INDUSTRIAL SECTOR IN THE NATIONAL ECONOMY AND DEVELOPMENT FACTORS.....	380
Rakhimov Bakhromjon Ibroximovich	
INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	386
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
GLOBAL INCOME INEQUALITY IN 2024: CAUSES, PATTERNS, AND CONSEQUENCES.....	393
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ В СВОБОДНО ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОНАХ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	401
Шарифходжаев Шавкат Окилович, Ачилова Ширин Шавкат кизи	
O'ZBEKISTON KON-METALLURGIYA SANOATI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HOZIRGI HOLATI	407
Ergashov Botirjon Ergashovich	
PENSIYA JAMG'ARMASIDA DAVLAT BUDJETI TRANSFERTLARI ULUSHI HAMDA UNING XORIJ TAJRIBASI	415
Sherjonov Doniyor Saparbayevich	
O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARINI QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAN FOYDALANIB MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	419
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA FIRIBGARLIKLAR: MEXANIZMLARI, SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLIISH YO'LLARI.....	425
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA QISHLOQ XO'JALIGINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	431
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
TURIZM SOHASINING IJTIMOIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	435
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
SANOATDA IQTISODIY MOLIYAVIY HISSOBOTLAR XALQARO STANDARTLARINI RAQOBATBARDOSH KORPORATIV STRATEGIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA QO'LLASH.....	442
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
ФОНДИРОВАНИЕ И СТРАХОВАНИЕ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ АПК: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	447
Дурманов Акмал Шаймарданович	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI RIVOJLANISHINING STATISTIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	456
Atajanova Guli Maxsudbekovna	
JAHON MOLIYAVIY BOZORLARI BARQARORLIGIGA GLOBAL IQTISODIY INQIROZLAR VA GEOSIYOSIY OMILLARNING TA'SIRI HAMDA ULARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI	462
Abdurazakova Nargiza Rixsibayevna	



QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHDA BOSHQARUV QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI.....	467
Mamadiyarov Dilshad Uralovich	
PAXTA TOZALASH KORXONALARINING TARKIBIY BO'LINMALARIDA MOLIVAVIY BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	474
Murodov Orif Jumayevich, G'ulomov Xaydarbek Ilyos o'g'li	
BARQAROR KELAJAK SARI: MAMLAKATDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI MUSTAHKAMLASH	482
Abdullaev Shavkatjon Maxmudillaevich	
ZAMONAVIY IQTISODIY SHAROITLARDI KORXONALARNING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH	487
Abdulakimova Moxina Farxod qizi	
UMUMIY OVQATLANISH SHAHOBCHALARINING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	493
Amiriddinova Muslima Zayniddin qizi	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA MIJOZLAR EHTIYOJINI O'RGANISH VA XIZMAT SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUHLARI	498
Babayeva Lola Ibragimovna	
MINTAQADA TARIXIY VA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA DAVLAT HAMDA XUSUSIY SHERIKCHILIK TIZIMIDAN FOYDALANISH	504
Xusanov Chari Kadirovich	
PROSPECTS FOR IMPROVING INFRASTRUCTURE FOR SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	509
Botirova Xulkar Olimjonovna	
THE IMPACT OF AGRICULTURAL CLUSTERS ON FOOD SECURITY AND MACROECONOMIC STABILITY	514
Sherkulov Shohruh Erkin ugli	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISSIQXONA IQTISODIYOTINI O'RNI VA NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR	520
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
IJTIMOY AHAMIYATI YUQORI LOYIHALARNI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	524
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQOBAT STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	529
Sharopova Nafosat Radjabovna, Jamolova Aziza	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILARNING XULQ-ATVORINI O'RGANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	537
Sultonova Zulxumor, Bobojonov Baxrombek Ro'zimovich	
INTERNATIONAL TRADE BETWEEN INTEGRATION AND ISOLATION: INNOVATION AND UNCERTAINTY IN A FRAGMENTING GLOBAL ECONOMY.....	542
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANIDA SIGIRLAR BOSH SONINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	548
Sabit Gabbarov	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTINI OSHIRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	552
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Xo'janova Husnora	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIY O'SISH SIFAT OMILLARINING TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	558
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
ОБЩАЯ КОНЦЕПЦИЯ СТАБИЛЬНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ.....	567
Зайналов Джахонгир Расулович	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ РЫНКОВ КАПИТАЛОВ	571
Хотамкулова Мадина Санжар кизи, Зайналов Джахонгир Расулович	



IPOTEKA KREDITI MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA AMALIY ISHLAR TAHLILI	576
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	
KORXONALARDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	581
Abdurashidova Nigora Alisherovna, Abduqodirova Donoxon	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATINI OSHIRISH OMILLARI VA MEZONLARI	588
Jumanov Ruslanbek Bobojanovich	
O'ZBEKISTONIDA MEHNAT BOZORINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	592
Rasulev Alisher Fayziyevich, Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li	
STUDY OF THE ECONOMIC EFFICIENCY OF GREEN BONDS, ECOLOGICAL LOANS, AND GREEN INVESTMENT FUNDS, AS WELL AS THEIR IMPORTANCE IN THE FINANCIAL SYSTEM.....	595
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK TERMINOLOGIYASINING ILMIY-TAHLILIIY TALQINI.....	603
Aripov Oybek Abdullayevich	



KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK TERMINOLOGIYASINING ILMIY-TAHLILIIY TALQINI

Aripov Oybek Abdullayevich

Namangan davlat texnika universiteti
"Iqtisodiyot" kafedrasini mudiri, DSc, professor

Annotatsiya. Maqolada biznes va tadbirkorlik tushunchalarining ilmiy-amaliy talqini yoritilib, ularning o'zaro farqi, bozor iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadbirkor, ishbilarmon, menejer va mulkdor faoliyati taqqoslanib, novatorlik, tavakkalchilik va manfaatdorlik kabi xos xususiyatlar asoslangan.

Kalit so'zlar: biznes, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, menejment, mulkdorlik, bozor subyektlari, novatorlik, tavakkalchilik, iqtisodiy faollik, tijorat, kapital, foydalar taqsimoti.

Abstract. The article highlights the scientific and practical interpretation of the concepts of business and entrepreneurship, analyzes their differences, role and significance in a market economy. The activities of an entrepreneur, businessman, manager and owner are compared, and such characteristics as innovation, risk-taking and self-interest are based on them.

Key words: business, entrepreneurship, business, management, ownership, market entities, innovation, risk-taking, economic activity, commerce, capital, distribution of profits.

Аннотация. В статье рассматривается научно-практическое толкование понятий «бизнес» и «предпринимательство», анализируются их различия, роль и значение в рыночной экономике. Сравняются деятельность предпринимателя, бизнесмена, менеджера и собственника, на основе которых определяются такие характеристики, как инновационность, склонность к риску и личный интерес.

Ключевые слова: бизнес, предпринимательство, бизнес, управление, собственность, субъекты рынка, инновации, склонность к риску, экономическая деятельность, коммерция, капитал, распределение прибыли.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotida turli mulkchilik asosidagi ishchanlik faoliyati uchun keng yo'l ochilgan bo'lib, biznes va tadbirkorlik bilan bimalol shug'ullanish mumkin. G'arbda bu kabi tushunchalar yaxlit «biznes» atamasi orqali ifodalanadi. Demak, biznes – bu insonning pulni ko'paytirish bilan bog'liq ishchanlik faoliyatidir.

«Biznes» tushunchasining sinonimlari – tijorat, korchalonlik, savdogarlik, bo'lib, «pul qilish» bilan bog'liq ishni bajarish yoki ana shunday faoliyat turini anglatadi. Biznes – xo'jalik subyektlarining faoliyat sohalarini va uning iqtisodiy manfaatlarini xarakterlovchi umumiy iqtisodiy termin hisoblanadi.

Biznes nafaqat alohida shaxs, balki butun jamiyat, davlat uchun ham zarurdir. Biznes jamiyatdagi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiruvchi, quvvatlovchi va tezlashtiruvchi o'ziga xos kuch, ta'bir joiz bo'lsa, «sosal-energetik maydon» sifatida xizmat qiladi. Biznes va biznesmenlar tufayli bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi o'stiruvchi, o'z ustida tinimsiz ishlashni talab qiluvchi samarali faoliyat shakllarini yuzaga keltiruvchi iqtisodiy jarayondir.

Bugungi kunda «biznes» tushunchasi faoliyatni miqdor va hajm jihatdan ham ifodalaydi. Masalan, ishchilar soniga yoki kapital aylanmasiga qarab kichik, o'rta va yirik biznesni farqlash mumkin. Ammo, qanday hajmda yoki shaklda bo'lishiga qaramay, biznes bozor muhitida tarkib topgan aniq faoliyat turi bo'lib, faol ishchanlik mashg'ulotini anglatadi. Biznesda band bo'lganlarni xalqaro tilda «biznesmyen» deb atashadi, ya'ni o'zbek tilida «ishbilarmon»dir.

«Ishbilarmon» tushunchasi «tadbirkor»ga ko'ra universal qo'llaniladigan tushunchadir. Ammo o'zbek tilida ishning ko'zini biladigan, sohibkor, omilkor, ya'ni, biron-bir ishni maromiga yetkazib bajaradigan shaxslarni ham «ishbilarmon» deb atashadi. Bunday yondashuv xalqaro miqyosda ham o'z tasdig'ini topgan. Masalan, AQSHdagi Jorjtaun Universitetining doktori Derek Libert fikricha, ishbilarmon tinimsiz – «beto'xtov maromda» ishlaydigan shaxsdir. Ishbilarmonlar o'z ishlarini «bir tekis» olib borish uchun «sog'lom mahorat darajasini betinim harakatda saqlash va to'ldirib turish»ni «havodek zarur» deb hisoblaydilar¹. Demak, ular ishni «ko'zini» biladigan sohibkor insonlardir.

¹ Derek Libert. Ishbilarmonlik unsurlari. // Soliq to'lovchining jurnali. –1996. №5-6. 33 b.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hisrich, J. (2018). Small Business Management: Theory and Practice. New York kitobida kichik biznes va tadbirkorlikning nazariy va amaliy jihatlarini keng qamrovda yoritadi. Muallif kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, tadbirkorlik faoliyati shakllari, boshqaruv strategiyalari va moliyaviy barqarorlik masalalarini tahlil qiladi. Kitobda terminologik tushunchalar aniqlashtirilgan, jumladan "start-up", "o'zaro bog'langan biznes tarmoqlar", "kuchaytiruvchi kapital" kabi atamalar tadbirkorlikning zamonaviy kontekstida sharhlangan. Hisrichning asari tadqiqotchilarga kichik biznesning strategik va operatsion jihatlarini o'rganishda mustahkam nazariy baza beradi.

Drucker tadbirkorlik va innovatsiyalarni bir-biri bilan bog'liq jarayon sifatida ko'radi. Kitobda tadbirkorlikning ilmiy-ta'limiy tushunchalari, biznes modeli, riskni boshqarish va resurslardan samarali foydalanish masalalari batafsil tahlil qilinadi. Muallif kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati uchun atamalarning ahamiyatini, shuningdek, terminlarning global va milliy iqtisodiy kontekstdagi o'zgarishini muhokama qiladi. Bu asar tadbirkorlik terminologiyasini akademik va amaliy jihatdan tushunish uchun foydali manba hisoblanadi.

3. Kuratko, D. F., & Hodgetts, R. M. tadbirkorlik jarayonini nazariy va amaliy jihatdan o'rganadi. Mualliflar kichik biznesning rivojlanish bosqichlari, tadbirkorlik ekotizimi, moliyaviy boshqaruv va bozor sharoitiga moslashuv ko'rsatkichlarini ilmiy-tahliliy tarzda tushuntiradi. Terminologik jihatdan kitobda "entrepreneurial mindset", "venture capital", "business incubation" kabi tushunchalar batafsil izohlanadi. Bu asar tadbirkorlik sohasida ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi talabalar va mutaxassislar uchun nazariy hamda amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, solishtirima tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rossiyalik iqtisodchilar «ishbilarmonlik faoliyati – bu eng avvalo, qo'lidagi ozmi-ko'pmi boyligidan biznes bilan shug'ullanish uchun foydalanadigan faol va tashabbuskor kishining intellektual faoliyati», deb qaraydilar. «Aynan – u «dinamizm», «dadillik», «tashabbus» kabi tushunchalar bilan qo'shilib ketuvchi ishbiarmonlik ko'pgina samarali g'oyalarni ro'yobga chiqaradi»², – deb ta'kidlaydilar.

Umuman olganda, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qo'llaniladigan «biznes» tushunchasi keng ma'noda qo'llanilib, bu atama mohiyati «tadbirkorlik»ni ham o'z ichiga qamrab oladi. Ammo «tadbirkorlik» atamasi «biznes» tushunchasiga nisbatan tor ma'noda qo'llaniladi.



1-rasm. Biznes bilan bog'liq tushunchalarning o'zaro aloqadorligi³

² Jiznin S., Krupnov V. Qanday qilib biznesmen bo'lish mumkin? (rus tilidan tarj.) –T.: O'qituvchi, 1992. 5 b.

³ Rasm muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Agar 1-rasmdagi holatni tahlil etadigan bo'lsak, biznes keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, mulkdorlik, boshqaruvchilik uning tarkibiga kiruvchi torroq doiradagi tushunchalardir. Biznesda turli-tuman bozor subyektlarining o'zaro manfaatli yoki foyda olishga yo'naltirilgan munosabatlarini ko'rish mumkin. Foyda yoki manfaatdorlikni oshirish esa har qanday bozor subyektlarining ustuvor maqsadi hisoblanadi.

Fikrimizcha, tadbirkor jismoniy shaxs sifatida o'z faoliyatini tavakkalchisiga amalga oshirsa, menejer yuridik shaxs maqomidagi korxonani boshqarish orqali o'z faoliyatini amalga oshiradi. Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda tadbirkor, menejer, biznesmen kabi atamalarni bir xil tarzda talqin etish har xil mazmunga ega bo'lgan bu iqtisodiy atamalarining ma'nosini buzadi. Aslida bunday faoliyatlar bilan shug'ullanish, bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlarga ega.

1-jadval. Tadbirkor, ishbilarmon, menejer va mulkdor tushunchalarining bir-biridan farqi va faoliyatidagi o'ziga xoslik⁴

Xususiyat turi	Tadbirkor	Ishbilarmon (biznesmen)	Menejer	Mulkdor
Qobiliyat-dagi moyillik	Tashabbuskorlik, uddaburronlik, izlanuvchan tabiatli, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi	Erishilgan muvaffaqiyatni mustahkamlashga kuchli intiluvchi	Boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan yollanuvchi	Mulkn qadrsizlan-tirmaslik yo'lida faoliyat olib boruvchi
Doimiy ishi	G'oyaga ega bo'lgan odam	Foyda keltiruvchi ish bilan mashg'ul odam	Korxona manfaati yo'lida faoliyat ko'rsatuvchi odam	Mulkn ijaraga beruvchi odam
Moliyaviy manbasi	Boshlang'ich kapitali bo'lmasligi mumkin	Kapitalga ega	Korxona kapitalini shakllantiradi	Doimiy dastmoyasiga ega
Tavakkalchilik qilish darajasi	Tavakkalchilikka moyil,	Doimiylikka intilgan, fikrlash va harakatlarida konservator, menejer-ga xos talantga ega	Tavakkalchi-likni o'z zimmasida emas, balki korxona miqyosida olib boradi	O'z mulki doirasida tavakkalchi-likka moyil
Olادigan ulushi	Tadbirkorlik foydasini oladi	Kapitaldan kelgan daromadni oladi	Korxona keltirgan daromaddan ish xaqi oladi	Mulkdan dividend yoki foiz sifatida shakllangan daromadni oladi
Talantining kelib chiqishi	Novator, xudo bergan talant sohibi	Amaliy faoliyatida shakllanadi	Bilim olishda yuzaga keladi	Mulk qiyma-tini oshirish yoki saqlab qolishda namoyon bo'ladi
Qobiliyat-ning nodirligi	Hayotda juda kam uchraydi	Hayotda doim uchrab turadi	Hayotda uchraydi	Hayotda mavjud

Biznes sohasida band bo'lgan «Tadbirkorlar alohida sinfni tashkil qiladilar, ...shuning uchun ular alohida ajralib turuvchi tashqi ko'rinishga ega, shu tufayli ularning faoliyati o'ziga xos (spesifik) muammolarni keltirib chiqaradi»⁵. Ular «ishni qanday qilib to'xtatib qo'yish mumkinligini bilganlari kabi, unga qanday qilib turtki berishni ham bilishadi»⁶, ya'ni qachon orqaga tisarilish lozimligini, o'z ishini yaxshilash niyatida o'zgartirish kiritish kerakligini va zarur bo'lsa, qanday chiqish me'yori his eta oladilar.

Biznesning sinonimlari: tijorat, savdo, tarmoq, firma, faollik, o'zini hammadan bilimdon deb hisoblovchi, ishbilarmon, epchil.

Biznes bilan mashg'ul bo'lgan kishilarda ish vaqti belgilanmaydi. Chunki biznes – kishilarning bo'sh vaqtini to'ldiruvchi, mehnat kuchlarini ishga soluvchi va tabiiyki, daromad olish usullarini namoyon qiluvchi sohadir. Har qanday shaxs agar imkon topsa, ish va o'qishdan bo'sh vaqtda biznes bilan shug'ullanishi mumkin.

Biroq, biznesda asosiy hal etuvchi xususiyat – novatorlik (yangilik kirgizuvchanlik), yangi g'oyalarni izlash va uning yechimini qidirish, faqat tadbirkorlik faoliyatiga xos bo'lgani uchun, bu uning ajralib turuvchi xususiyatidir.

4 Jadval muallif tomonidan olib borilgan sotsiologik so'rovnomalar natijalari asosida ishlab chiqilgan.

5 Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1982. С. 174.

6 Дерек Либерт. Ishbilarmonlik unsurlari. // Soliq to'lovchining jurnali. – 1996. №5-6. 32 b.



Shu bois, tadbirkor vaqti kelganda juda katta foyda olishga muvaffaq bo'la oladigan shaxs hisoblanadi. Tadbirkordan boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida novatorlik ko'rinmaydi. Shuning uchun tadbirkorlik faoliyati uchun faqat tadbirkorning o'zi subyekt hisoblanadi.

Tadbirkorning miyasi g'oyalarga boy bo'ladi. Ko'zlari iqtisodiy manfaatdor bo'lish uchun imkoniyat qidiradi. Og'zidan faqat foydali maslahatlar chiqadi. Quloqlari mijozlarni eshitadi. Qo'l-oyoqlari pul topish maqsadida harakatda bo'ladi. Tadbirkorning yuragi motivatsiya bilan to'lgan bo'ladi.

Tadbirkorlikning sinonimlari: mashaqqatli mehnat, uddamuronlik, mohirlik, bilimdonlik, tashabbuskorlik. Demak, haqiqiy tadbirkor mustaqil g'oyasi asosida faoliyat olib boradigan shaxs.

Tadbirkorlikda tavakkalchilik tadbirkorning zimmasiga tushadi. Biznesda esa tavakkalchilikni o'z zimmasiga olmagan holda yoki cheklangan tavakkalchilik bilan ishtirok etish mumkin. Bundan tashqari tadbirkor va ishbilarmorning xatti-harakatlarida mulkdan yoki kapitaldan foydalanish, javobgarlikni his etish, ish faoliyatida ijodiy yondashish, foyda olish va uni taqsimlashda ancha farqli jihatlar mavjud.

Yollanib ishlayotgan menejer ham tavakkalchilikni shaxsan o'z zimmasiga olmaydi, tavakkalchilik mulkdor zimmasida qoladi. Shu jihatdan yollanma menejerni to'la ma'noda tadbirkor sifatida talqin etib bo'lmaydi. Chunki menejer tavakkalchilik qilaman desa, avvalambor kengash chaqiradi va muammoni kengash muhokamasiga qo'yadi. O'z navbatida mulkdorning ham tavakkalchiligi tadbirkorning tavakkalchiligi kabi o'ta murakkab doirada emas. Mulkdorning tavakkalchiligi mulkning qiymatini saqlab qolish yoki uni oshirish doirasida bo'ladi.

Tadbirkor har qanday bozor subyekti bilan iqtisodiy va albatta manfaatli munosabat o'rnatib, adolatli, murosali xatti-harakatlarni tan oladi. Qur'oni Karimda «...o'zaro rozilik bo'lgan savdo-sotiq orqali mol-dunyo kasb qilingiz...» deb e'tirof etiladi⁷. Tadbirkor ana shunday da'vatni qo'llab-quvvatlovchi va iqtisodiy munosabatlarda adolatli yo'l tutishni afzal ko'ruvchi shaxs. Shuningdek, u ish yuritmay turib, kapital hisobidan tekin daromad ko'rib, uni parazitlarcha o'zlashtirishni inkor etadi, ya'ni halollik va haromdan xazar qilish, tadbirkorning axloqiy xislatlaridandir. Muqaddas Qur'oni Karimda «halol va pokiza yenglar, solih ishlar bajaringlar»⁸ deb qayd etilgan. Zero, Islomiy ta'limotda mehnat qilmay qo'lga kiritilgan luqma harom deb hisoblanadi.

«Bozor subyektlari» foyda yoki manfaatdorlikka intilsalar-da, ular tashabbuskorlik asosida ijodiy yondashuvlarini namoyon etib boradilar. Ularning barchasida tavakkalchilik asosiy unsur hisoblanadi. Tadbirkor, menejer, mulkdor va ishbilarmorning iqtisodiy erkinlik asosida mulkni tasharruf etib, o'z (yoki korxona) manfaatlarini o'ylab harakat qiladilar, ammo jamiyat rivoji yo'lida xizmat qilayotganliklarini xis etavermaydilar.

Xullas, «biznes» bozor iqtisodiyotining barcha qatnashchilari o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi va nafaqat tadbirkorlarni, shu bilan birga iste'molchilarning, yollangan ishchilarning, davlat tuzilmalarining ham iqtisodiy harakatini ifodalaydi va kuchaytiradi. Shunday qilib, biznes faoliyatida juda ko'p subyektlar qatnashadi. Ularning orasida vositachilar, ijarachilar, sug'urtachilar, iste'molchilar va hokazolar ham bor. Ammo, ishbilarmorning, tadbirkor, menejer yoki mulkdor alohida «biznes subyektlari» bo'lib, keng ma'noda qo'llaniladigan «bozor subyektlari» sa'y-harakatlarini faollashtirishga katta yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa shuki, «tadbirkorlik» va «biznes» atamaları ommaviy ravishda bir xil tushunilsa-da, ilmiy jihatdan mulohaza qilinganda ularni farqlay bilish kerak. Biznes atamasi keng ma'noli bo'lib, tadbirkorlik uning tarkibiga kiruvchi torroq ma'nodagi tushunchadir. Ammo, «tadbirkorlik» «biznes»ning o'zagini tashkil etadi.

Kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik faqat iqtisodiy faoliyat bilan cheklanmay, balki innovatsiyalarni joriy etish, risklarni boshqarish va resurslardan samarali foydalanish jarayonlarini ham o'z ichiga oladi. Kichik biznes esa bu jarayonlarning asosiy vositasi bo'lib, ish o'rinlari yaratish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va bozor raqobatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik va kichik biznesga oid terminologiya batafsil tahlil qilingan. Masalan, «start-up», «venture capital», «business incubation», «entrepreneurial mindset» kabi tushunchalar sohaning nazariy va amaliy asoslarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Terminlarning ilmiy-ta'limiy talqini tadqiqotchilar, talabalar va amaliyotda ishlayotgan mutaxassislar uchun nazariy bazani mustahkamlaydi hamda sohani yanada chuqur tushunishga imkon yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, kichik biznes va tadbirkorlik terminologiyasini ilmiy-tahliliy tarzda o'rganish nafaqat akademik tadqiqotlar, balki amaliy faoliyat uchun ham zarurdir. Terminologiyani aniq va tizimli talqini tadbirkorlikni rivojlantirish, moliyaviy va strategik rejalashtirishni samarali amalga oshirish, shuningdek, iqtisodiy mustaqillik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

⁷ Qur'oni Karim: Niso surasi, 29 oyat.

⁸ Qur'oni Karim: Niso surasi, 29 oyat.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Aripov O.A. Kichik biznes va tadbirkorlik. Darslik (lotinda). – Namangan. «Mashrab» nashriyoti. 2025. – 356 b.
2. Aripov O. A. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish // –T.: Fan. – 2012. – T. 272. – S. 332-334.
3. Aripov O. A. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati //T.: TDIU. – 2020. – T. 72.
4. Derek Libert. Ishbilarmonlik unsurlari. // Soliq to'lovchining jurnali. –1996. №5-6. 32-33 b.
5. Jiznin S., Krupnov V. Qanday qilib biznesmen bo'lish mumkin? (rus tilidan tarj.) –T.: O'qituvchi, 1992.
6. Шумпетер Й. Теория экономического развития. –М.: Прогресс, 1982.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
